

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14928832>

INKLYUZIV TA'LIMNI AMALIYOTGA JORIY QILISH UCHUN ZARUR BO'LGAN TASHKILY VA USLUBIY ISHLAR

Mamatraximova Oygul Mamatmurodovna

University of management and future technologies

2-kurs 558-guruh talabasi

***Annotatsiya:** maqolamizda hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlar ta'limi uchun, ularning nuqson turlari va uning darajalarini inobatga olgan holda maxsus ta'limning 5 ta yo'nalishi (aqli zaif, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, nutqida, ko'rishida va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar) bo'yicha korreksion ta'lim tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning mohiyati haqida fikr mulohaza yuritamiz.*

***Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, ta'lim, ta'lim-tarbiya, muhit, nuqson, jamiyat, isloxotlar, individuallik, pedagogik mahorat, shaxsiylik faoliyat, bola.*

Avvalo so'zimizni inklyuziv ta'lim mohiyati bu-barcha bolalar, qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'ziga xos ehtiyojlari bo'lsin yoki bo'lmasin, birgalikda o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan ta'lim tizimi. 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan.[1] Bu tizimda har bir bola o'ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirish va o'z potentsialini to'liq ochish imkoniyatiga ega bo'ladi. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari bu teng imkoniyatlar barcha bolalar, qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'qishga teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishlari kerak. Vazirlar Mahkamasi "Yo'l xaritalari" hamda maqsadli ko'rsatkichlarning

(indikatorlarning) bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib borsin hamda yiliga bir marta uning natijalarini Hukumat rayosati majlislarida tanqidiy ko‘rib borilgan.

Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi, jumladan:

a) 2020 — 2022-yillar davomida: inklyuziv ta‘lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;

inklyuziv ta‘lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;

inklyuziv ta‘lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta‘minlanadi. [2]

Farqlarni bilishda bolalarning turli xil ehtiyojlari va qobiliyatlari qadrlanishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini rivojlantirishga yordam berilishi kerak. Hamkorlik nuqtaiy nazardan o‘qituvchilar bilan ota-onalar, mutaxassislar va jamoatchilik o‘rtasida hamkorlik o‘rnatilishi ta‘lim tizimida katta natijalarga erishishga sababchi omil bo‘lishi kerak. Moslashuvchanlikni ta‘lim dasturlari va o‘quv jarayoni barcha bolalarning ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak.

Nuqsonli va jismoniy, ruhiy salomatligida kamchiligi bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘limning afzalliklarini quydagicha izohlashni lozim topdik. Barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratilishi inklyuziv ta‘limdagi barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratadi va ularning potentsialini to‘liq ochishga yordam beradi. Ijtimoiy va madaniy xilma-xillikni qadrlashda inklyuziv ta‘lim bolalarni turli xil madaniyatlar, til va ehtiyojlarga ega bo‘lgan odamlar bilan birgalikda o‘qishga o‘rgatadi va ularning o‘zaro hurmat va qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘quvchi bolalarning o‘zaro ta‘lim olishdagi ta‘sirini kuchaytirishda inklyuziv ta‘lim muhitda turli xil qobiliyatlarga ega bo‘lgan bolalar bir-birlaridan o‘rganish va bir-birlariga yordam berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jamiyatni rivojlantirishda inklyuziv ta‘lim jamiyatni yanada bardoshli va adolatli qilishga yordam beradi. Ta‘lim oluvchi bolalarda inklyuziv ta‘limni amalga oshirish, inklyuziv ta‘limni amalga

oshirish uchun quyidagi choralar ko‘rilishi kerak. O‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida o‘qituvchilar inklyuziv ta‘lim printsiplari va usullarini o‘rganishlari va bolalarning turli xil ehtiyojlariga moslashishga tayyor bo‘lishlari kerak. Inklyuziv ta‘lim uchun zarur bo‘lgan resurslar, masalan, maxsus o‘quv materiallari, texnologiyalar va qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlar taqsimlanishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik o‘rnatish va ularni bolalarning ta‘lim jarayoniga jalb qilish kerak.

Jamoatchilikni xabardor qilish jamoatchilikni inklyuziv ta‘limning ahamiyati va afzalliklari haqida xabardor qilish va ularning qo‘llab-quvvatlashini ta‘minlash kerak. Inklyuziv ta‘lim barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratadigan va ularning potentsialini to‘liq ochishga yordam beradigan ta‘lim tizimidir. Bu tizim jamiyatni rivojlantirishga va barcha odamlar uchun adolatli va bardoshli jamiyat yaratishga hissa qo‘shadi. Inklyuziv ta‘limni amalga oshirish uchun o‘qituvchilar, ota-onalar, mutaxassislar va jamoatchilikning birgalikdagi sa’y-harakatlari zarur.

Har bir bola individualshaxs sifatida o‘ziga xos xususiyatga va takrorlanmas hayotga moslashish jarayonlarini va rivojlanishning turli bosqichlarini va ularga ko‘rsatiladigan amaliy yordamni taqazo etadi. Ayrim toifaga kiruvchi bolalar esa boshqalardan ko‘ra ko‘proq va individual yordam va e‘tiborga muhtoj hisoblanadilar. Misol keltiradigan bo‘lasak, umum ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan bir guruh o‘qituvchilar individual yordam va etiborga muhtoj sezadilar va ularga maxsus qo‘shimcha ta‘lim-tarbiya va rivojlantiruvchi mashg‘ulot tashkil etish uchun ehtiyoj yug‘uladi. Bu esa bugungi kunda “Maxsus ta‘lim” jarayonlariga borib taqaladi.

Ammo biz o‘z etiborimiz manashu kabi muamolarga va maxsus ta‘limga ehtiyoj sezayotgan bolalarga qaratishimiz lozim. Lekin bir qator muammolar duch kelamiz chunki hozirgi kunda umumiy ta‘lim muassasalarida faoliyat yutayotgan pedagog mutaxasislarning bu toifaga kiruvchi bolalar bizning bolalarimiz emas ular “Maxsus ta‘lim” toifasidagi bolalar degan gaplarini juda ko‘p takrorlashlariga guvoh bo‘lib kelmoqdamiz. buu kabi bugungi ta‘lim-tarbiya tizimiga boshqa va keng ko‘lamdagi asoslangan klassifikatsiyalar va “Maxsus ta‘lim”ga muhtoj bolalar tushunchalarini o‘zgartirish orqali ularga amaliy yordam ko‘rsatish va jamiyatda o‘z o‘rnilarini

topishga imkon yaratishga amaliy yordam bermoqda. Umum ta'lim muassasalarida nuqsonlarni turiga ko'ra sharoitlarni o'rganib chiqib yaratish orqali ko'plab maxsus ta'limga muhtoj bolalarni ehtiyojlarini oddiy umum ta'lim muassasalarida ham tashkil etish va u yerning o'zida ham maxsus dastur, darsliklar va yordamchi texnik vositalarni qo'llash imoni yaratiladi.

Shuning uchun han imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim-tarbiyasi jamiyatda mavjud teng-teng huquqlilik tamoyilli asosida muammosini hal eta olishi, bugungi kunda amalga oshiriladigan siyosiy jarayonlarning dolzarb muammolari qatoriga qo'shilmoqda, bunga saba esa juda ko'plab bolalar turli sabablarga ko'ra ta'lim-tarbiyadan chetda qolib ketmoqda, buesa ularni jamiyatda o'z o'rnilarini topishdagi turli inqirozlarga sabba bo'lmoqda. Inklyuziv ta'limga jalb qlish jarayonlarini amaliy tashkiliy, ilmiy-uslubiy chora-tadbirlarini ko'rib chiqish orqali, ya'ni mutaxassis kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbir va o'quv jarayonlarini ishlab chiqish va tashkil qilish orqali, alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni umum ta'lim muassasalariga jalb qilish chora tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Ta'lim-tarbiya soxasida imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalar qatorida bola inson hisoblanadi va u ham jamiyatda tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishi o'z orniga ega bo'lishga haqli, shuningdek u uchun mavjud nuqson bilan atalish pomaqbul (odobsizlik) holat hisoblanib, bola uchun shaxsiy chegaralarni buzush kabi axloqsizlikka tenglashtiriladi. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj, jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi imtiyoz va foydali jihatlari bilan axamiyatli hisoblanadi.

inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi, mahallasi va qarindosh - urug'lari davrasida bo'lish imkoniyatini yaratadi;

inklyuziv ta'lim bolalar uchun ta'lim sifatini yaxshilovchi katalizator vazifasini bajaradi;

bolalarni turar joylaridan uzoqda bo'lgan internatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi, jamiyat hayotida ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qilar edi;

uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi, va bu uning psixologiyasida chuqur iz qoldirar edi.

Oila bola uchun tarbiya maskani bo'lib qoladi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak Maxsus ehtiyojli bolalarni umum ta'lim muassasalariga qabul qilinishi jamiyatda ulani o'z o'rnilariga ega bo'lishlari o'zlarini huqu va imkoniyatlaridan foydalana olishlari uchun ham muhim omildir. Bo'lajak mutaxasislardan kasbiy tayyorgarlik va kuchli tajribani talab qiladi.

Inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalariga tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega volontyorlar va oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilinadi.[3]

Inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan va tayanch korreksion sinflar ochilgan umumta'lim maktablari Kuzatuv kengashi tarkibiga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalaridan (ularning qonuniy vakillaridan) biri kiritiladi.[4]

Nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda professional ta'lim muassasalari uchun umumiy davlat granti asosida qabul ko'rsatkichlarining ikki foizgacha bo'lgan qismi ushbu shaxslarga ajratiladi. Ta'lim vazirligi mavjud muamolarni xal qilish maqsadida maxsus maktablar qoshidagi alohida bo'lim va muqobil sifatida inklyuziv ishlash usul va uslublarini ishlab chiqilsa va bu tavsiyalarni ta'limda to'laqonli ijrosi qo'llaniladi, samarali bo'ladi.

Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 13.10.2020-yildagi PQ-4860-son. www.lex.uz
2. Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar uchun inklyuziv ta’limni tashkil yetish to‘g‘risida muvaqqat NIZOM. O‘RXTV 234-sonli buyrug‘i T.:19-sentyabr. 2005.
3. “Maktablar hamma uchun”- “Bolalarni qutqaring jamg‘armasi” -2002 yil.
4. “Maktablarin olqishlab-inklyuziv maktablardagi nogiron o‘quvchilar”- YuNESKO -1999-yil.
5. Inklyuziv ta’lim. Darslik / Madatov I.Y.; O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, 2024. – 240 b.
6. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2021-yil 7-noyabr. №238 (8018)
7. Ta’lim barchaga birdek –maqola. N.Xolmatova, -Ma’rifat , 2003-yil 15-oktyabr.
8. Inklyuziv ta’lim. muvaqqat Nizomi. 2005 yil.
9. <https://lex.uz/docs/-5044711>